

UDK.675.92.049.98

**BOLALAR KIYIMLARIDA QO'LLANILADIGAN RANG VA SHAKLLARNING BOLA
ONGIGA TA'SIRI**

M25-16 guruh magistranti Xolmurodova D.
Ilmiy rahbar t,f,n dots Mo'minova U.

Bu maqolada bolalar tanasining shakllanish bosqichlari, kiyimlarda qo'llaniladigan ranglar hamda badiiy obrazlarning bola rivojlanishi va psixologiyasiga ta'siri to'g'risida so'z yuritiladi.

Это статья посвящена формированию тела ребёнка, цветам используемым в одежду и воздействию художественных персонажей на развитию и психологию ребёнка.

The following article is about children's body formation levels, colours which are used for clothes including the effects of artistic personages on the children's development and psychology.

Har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash hozirgi kun ta'lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biridir. Barkamol shaxsni tarbiyalashda u dunyoga kelganidan boshlab, to mактабгача tarbiya yoshigacha bo'lgan davrdagi psixologik xususiyatlarini bilish tarbiyachilar, pedagoglar va psixologlar, ota-onalar uchun muhim

ahamiyatga ega. Istiqlol tufayli bugungi kunda nafaqat respublikamizda, balki chet ellarda ham xaridorgir bo'layotgan o'zbek liboslari o'ziga xos ko'rinish kasb etmoqda. Jahon andozalariga mos ravishda ishlab chiqarilayotgan bunday mahsulotlarga talab kundan-kunga ortib bormoqda.

Bola kiyimlari birinchi navbatda kiyim-kechaklar tikish uchun tanlangan mato kichkintoylarni tashqi ta'sirdan himoya qilishi, ularda kislorod sirkulyasiysi (aylanishi)ni yaxshilashga xizmat qilishi lozim. Ikkinchidan bola dunyoqarashi kattalarnikidan tubdan farq qiladi. Matolarning yorqin ranglarda bo'lishi bolalarda ularni qabul qilish diapozonining tez rivojlanishini ta'minlaydi. Matoning yumshoqligi badanni terlashdan saqlashi hamda quyosh nurlarini tanaga o'tkazmasligiga ham kichkintoyning o'sishiga ijobjiy ta'sir etadi. Shuningdek, uning yengilligi, pishiqligi, tana haroratiga mos kelishiga ham etibor qaratiladi. Bolalar uchun tayyorlanayotgan kiyimlar assortimentida birinchi o'rinda gigiyenik jihatdan qulayligi hamda ularning rivojlanish davridagi harakat barqarorligi asosida oddiy bichimlar ko'rinishida bo'lishi lozim.

Darhaqiqat, bolalar kiyimlari tayyorlanayotgan korxonada mahsulotning sifat darajasi birinchi o'rinda turadi. Ikkinchidan ularni qadoqlanishiga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Chunki, qadoqlash xaridor didiga mos bo'lsa uning xaridi ham oson bo'ladi. Qiz bolalar kiyimi uchun alohida o'g'il bolalar kiyimi uchun esa alohida rasmlar tanlanib qo'yilgan liboslarning bejirimligidan ko'z qo'vnaydi. Bunda bolaning zerikib qolmasligi uchun bir xil rangdagi kiyimlari ustiga ularning dunyoqarashiga mos rasmlarni tanlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. [1] Uch yoshli bolaning dunyoqarashi keng bo'ladi. Uni tabiat bilan bog'liq rasmlar qiziqtiradi. Agar e'tibor bergen bo'lsangiz kichkintoylar ko'proq yorqin ranglarga talpinadi. Ularga libos tikayotgan korxona chevarlari ko'proq matolarning sariq, qizil, yashil kabi yorqin ranglilarini tanlashadi. Qiz bolalar ko'proq mato rangiga va guliga e'tibor berishadi. Shu bois ularning liboslari ko'proq gul, kapalak, daraxt, quyosh rasmlarini o'g'il bolalar kiyimlariga esa futbol to'pi, mashina yoki turli hayvonlarning, multfilm qahramonlarini tasvirlovchi rasmlar qo'yib tikilayotgan liboslar yanada ko'rkam ko'rinish kasb etmoqda. Bunda bolaning yoshiga qarab kichkina yoki kattaroq rasm tanlanadi. Uni ko'rishiqa qulay bo'lishiga ham alohida e'tibor beriladi. Bundan bolajonlar albatta xursand bo'lishadi.

Bolalar dunyoning eng muhim asosiy qismini tashkil etgani tufayli ularning kiyimlari ongiga juda katta ijobjiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu bilan o'sib borayotgan bolalarning tezkor, chaqqon, aqli o'ziga ishongan, fahm – farosatli bo`lishlariga, shuningdek, kelajakda mehnatsevar bo`lishlariga ota – onalar ham katta ta'sir etadilar. Yosh bolalar kiyimi ayniqsa ob – havo sharoitidan kelib chiqib tikilishi kerak. Ob – havoning birdan isib yoki sovib ketishi, bolalarning sog`ligiga tez ta'sir qiladiki, buni nazardan chetda qoldirmaslik kerak.

Ustki kiyimlar bir necha qavatdan tikilgan issiq matodan bo`lib, uni taqilmasi va isituvchi qismlari tikilgan bo`lishi kerak. Shuningdek, shaharda va qishloqda yashaydigan bolalarning kiyimlari ham ob – havosi va ijtimoiy kelib chiqilishiga qarab tikilishi maqsadga muvofiqdir Bolalarning tanasi, tana kengligining konkret qismlari va kiyim tug`ilishi ularning turli yoshidagi tana asoslariga bog`liqidir. Yosh bolalar yil sayin har hil rivojlanadilar. Bo`y uzunligi, oyoq, qo`l va boshning tuzilishi asosan bolalar yoshini xarakterlaydi. Bolalar tanasining shakli va o`lchamlari o`sish davrida doimo o`zgarib turadi. Ayniqsa, gavda mutanosibligida keskin farqlar seziladi. Yangi tug`ilgan chaqaloqning bosh uzunligi tana uzunliginng $\frac{1}{4}$ qismini tashkil qilsa, o`smir bolalarda esa $\frac{1}{8}$ qismiga teng.Chaqaloqlarda bo`yin kalta, qorin chiqqan va uzun, oyoq qo`lga nisbatan kalta bo`ladiarni o`sish davrida gavda qismlari bir tekisda rivojlanmaydi. Qo`l va oyoqlar tez o`sadi, o`smirlik davriga kelib oyoq 5 marta, qo`l 4 marta uzaygan bo`ladi. Tana qismi esa sekinriq o`sadi. O`smir yoshiga kelib tana 3 marta, bosh qismi esa 2 marta kattalashgan bo`ladi. Bolalarda bo`yning o`sishi 5-7, 10-11, 13-16 yoshlarda juda sezilarli bo`ladi. Yosh bolalarda musskullar kam rivojlangan, yuz terilari yumshoq, teri silliq, yonoqlari dumaloq bo`ladi.[2]

Kichik yoshdagi o`quvchilarning 7-8 yoshdan 10-11 yoshgacha bo`lgan bolalar bo`lib, ular boshlang`ich sinf o`quvchilari hisoblanadi. Bu yillarda bolaning hayoti va faoliyatida muhim o`zgarishlar yuz beradi. Binobarin, ularning psixikasida ham sezilarli darajada o`zgarishlar bo`ladi. Bolaning mактабга kirishi uning hayotida burilish chog`idir. Bola maktabga kirib o`qiy boshlashi bilanoq uning hayotida asosiy faoliyat o`qish bo`lib qoladi. O`qish o`quvchining vazifasi, ijtimoiy burchidir. O`qituvchi bilan birinchi uchrashuvda yoq bolalar ko`p narsalarni eshitadi va maktabdagagi o`qish haqida ko`p narsalarni bilib oladi va o`qishning nimaligini anglay boshlaydi. Maktabda bola sistemali ravishda yangiliklar oladi.Bu o`quvchining kundan-kunga orttirib borayotgan, xilma-xil mazmundagi bilimlarning manbaidir. Bolaning bilimlarni sistemali ravishda o`zlashtirib borishi natijasida undagi bilimning doirasi ham kengayib boradi, aqliy jarayonlar rivojlanadi, shu bilan bir qatorda, bolaning emotsiyonal va irodaviy xususiyatlari qayta tarkib topib, rivojlna boshlaydi, maktabdagagi talim jarayonining o`zi bolanining sezgi, idrok, tafakkur, nutq va diqqatlariga yangi talablar qo`yadi. Tafakkurda esa amaliy masalalar ishining usullarini bitta umumiy jarayoniga birlashtirish sifatida yaqqol namoyon bo`ladi. Shuning asosida nnsoniy intellekt shakllanadi va rivojlanadi.[1] Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yuzaga kelayogganligidan dalolat beradi.

Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari, so`ngra esa emotsiyonal motivatsion yo`nalish bo`yicha yangi shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo`nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzlikkacha bo`lgan bosqichlarni o`taydi. Obrazlilik deyilganda bolalarning turli obrazlarni yaratishi, ularni o`zgartirish va erkin harakatta keltirishi, ramzlilik deyilganda esa belgilar tizimi (matematik, lingvistik, mantikiy va boshqalar) bilan ishslash malakasi tushuniladi. [2]Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqati, asosan, bolalarning konstrukturlik o`yinlarida, texnik va badiiy ijodlarida namoyon bo`ladi. Bu davrda maxsus laeqatlar ko`qishklarining birlamchi rivojlanishi ko`zga tashlana boshlaydi. Bilish jarayonlarida- ichki va tashqi harakatlarning sintezi yuzaga keladi. Xuddi mana shu jarayonda bola kiyimlarining rangidan tortib har bir detaligacha ahamiyat kasb eta boshlaydi. Bolalar kiyimlaridagi yorqin ranglar ularning ijodkorlik qobiliyatiga, gul va boshqa o`simliklarning qo`llanilganligi – tabiatga bo`lgan mehrlarini shakllantirishda, ertak va multqahramonlarning tushirilganligi – qiyofalarni ajratish va bir-biridan farqlashga xizmat qilishga o`rgatsa, liboslardagi geometrik shakllar, avvalo, ularning bilimini oshirish va shakllarni aniq ajratish qobiliyatlarini rivojlanishiga sabab bo`ladi. Quyida geometrik shakllar bilan bezak berilgan bolalar kolleksiyasi to`plami tavsiya etilgan.(1-rasm)



1-rasm. Geometrik shakllar bilan bezak berilgan qiz bolalar kiyimi to'plami

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.Alimova, Z.Nishonova, Bola psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi, T-2011
2. Q.Sodiqov, Kichik maktab yoshidagi bolalar anatomiysi, fiziologiyasi va gigiyenasi, T-2014